

## **KORPORATIV NIZOLARNING SUDGA TAALLUQLILIGI VA SUDLOVGA TEGISHLILIGI**

*Norimova Matluba Turg`un qizi*

*Samarqand davlat universitetining magistranti*

*Samarqand viloyati Adliya boshqarmasi*

*Pasdarg`om tuman Adliya bo`limi 1-son*

*FHDYO bo`limi ish yurituvchisi*

*ORCID: 0009-0005-4714-3353*

*Email: matlubanorimovacareer@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada korporativ nizolarning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishliligi masalalari, tegishlilik va taalluqlilik tushunchasi, tegishlilik va taalluqlilikning turlari va korporativ nizolarda o`ziga xos xususiyatlari o`rganiladi. Shuningdek, maqolada umumiylar hukmida tegishlilik, das`vogarning tanlovi bo`yicha tegishlilik masalalari tahlil qilingan. Bundan tashqari maqolada ushbu nizolarni ko`rib chiqishda murojaat qilishda subyektlar doirasi tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** korporatsiya, korporativ nizo, sud, tegishlilik, taalluqlilik, turdosh tegishlilik, hukmida tegishlilik kabi so`zlar ishlatildi.

## **ДОПУСТИМОСТЬ И ПОДСУДНОСТЬ КОРПОРАТИВНЫХ СПОРОВ**

*Норимова Матлуба Тургун кизи*

*Магистрант Самарканского*

*государственного университета*

*Делопроизводитель отдела ЗАГС № 1*

*Пасдаргомского районного отдела юстиции*

*управления юстиции Самарканской области*

*ORCID: 0009-0005-4714-3353*

*Email: matlubanorimovacareer@gmail.com*

**Аннотация:** В статье исследуются вопросы подведомственности и подсудности корпоративных споров, понятия подведомственности и подсудности, виды подведомственности и подсудности, а также особенности корпоративных споров. В статье также анализируются вопросы общей территориальной подсудности, подсудности по выбору истца. Кроме того, в статье анализируется круг субъектов при обращении за рассмотрением данных споров.

**Ключевые слова:** корпорация, корпоративный спор, суд, подсудность, юрисдикция, смежная подсудность, территориальная подсудность.

## THE ADMISSIBILITY AND JURISDICTION OF CORPORATE DISPUTES

*Norimova Matluba Turg`un qizi*

*Master student of the Samarkand State University*

*Justice Department of Samarkand region Pasdargom*

*District Justice Department No. 1 registry office*

*ORCID: 0009-0005-4714-3353*

*Email: matlubanorimovacareer@gmail.com*

**Abstract:** The article studies the issues of the jurisdiction and jurisdiction of corporate disputes, the concept of jurisdiction and jurisdiction, types of jurisdiction and jurisdiction, and specific features of corporate disputes. The article also analyzes the issues of general territorial jurisdiction, jurisdiction by choice of the claimant. In addition, the article analyzes the scope of subjects when applying for consideration of these disputes.

**Keywords:** corporation, corporate dispute, court, jurisdiction, jurisdiction, related jurisdiction, territorial jurisdiction.

Korporativ nizolarning sudga taalluqligi va sudlovga tegishliligi nizolarni o`z vaqtida va tez hal qilinishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Nizolar sudda hal qilinishi yuzasidan taalluqlilik va tegishlilikni to`g`ri hal qilinishi uning tez va samarali yechim topilishi olib kelinishi mumkin. Misol uchun, arizachining korporatsiyada yuzaga kelgan mehnat nizosi uchun iqtisodiy sudga murojaat qilishi yohud turdosh tegishlilik yoki hududiy tegishlilik masalalariga e`tibor bermasdan murojaat qilinishi kelajakda murojatchining vaqt, mulki, puli, sarmoyasining yo`qotilishi olib kelishi mumkin. Shu sababli ham korporativ nizolarni hal qilish uchun sudga murojaat qilishda sudlovlilik va tegishlilik masalalarini murojaatchi yaxshi bilib olishi darkor.

Korporativ nizolar bo`yicha ishlar O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiy Protsessual kodeksining 25-moddasiga asosan, iqtisodiy sudlarning ish yurituviga taalluqli hisoblanadi. Kodeksning ushbu moddasida korporativ munosabatlarning iqtisodiy sudlarga taaalluqliligi belgilanib qo`yilgan bo`lsada, uning xususiyatlari va xarakteri inobatga olinmaganligi yaqqol ko`rinadi. Jumladan, normaning 25-moddasida ko`rsatilgan mehnatga oid munosabatlar fuqarolik sudlari tomondan ko`rib chiqilishi bir ma`noda nizolarning iqtisodiy sudlarga taalluqliligi emasligi nuqtai nazaridan ta`kidlab o`tilgan. Ammo unda nizoning kelib chiqishi, subyektlari sanab o`tilmagan. Misol uchun, korporatsiya xodimining tijorat sirini oshkor qilishi bilan

bog`liq yuzaga kelgan nizoda xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilish nizosi yohud boshqa sshu kabi kichik sanaladigan nizolarning yurisdiksiyasi aniq ohib ko`rsatilmagan. Shuningdek, qonunchiligidan korporativ munosabatlarning tartibga solishi yuzasidan kompleks jamlangan qonun hujjatlari mavjud emasligi ham nizolarning taalluqligi masalasi zaifligiga olib keladi. Korporativ nizolarning taalluqligi masalasiga qaytadigan bo`lsak, iqtisodiy protsessual kodeksning 26-moddasiga ko`ra, Xo`jalik jamiyatlari va shirkatlarining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarining, ulushlarning, kooperativlar a'zolari paylarining mansubligi, ularga yuklamalar belgilash va ulardan kelib chiqadigan huquqlarni amalga oshirish bilan bog liq nizolar: yuridik shaxs ishtirokchilarining (muassisalarining, a'zolarining) yuridik shaxs tomonidan luzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish va (yoki) bunday bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo`llash haqidagi da'volari bo`yicha nizolar: qimmatli qog'ozlar emissiyasi bilan, shu jumladan emitentning boshqaruv organlari qarorlari yuzasidan nizolashish bilan, emissiyaviy qimmatli qog`ozlarni joylashtirish jarayonida tuzilgan bitimlar. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarish (qo'shimcha ravishda chigarish) natijalari bo`yicha hisobotlar (xabarnomalar) yuzasidan nizolashish bilan bog`liq nizolar: qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchilarning aksiyalar va boshqa qimmatli qog`ozlarga bo`lgan huquqlarni hisobga olish, qonunda nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarni qimmatli qog`ozlarni joylashtirish va (yoki) ularning muomalasi munosabati bilan qimmatli qog`ozlarning nominal saqlovchilari tomonidan amalga oshirish bilan bog`liq faoliyatidan kelib chiqadigan nizolar, yuridik shaxs ishtirokchilarini umumiylig`ilishini chaqirish to`g`risidagi nizolar, bundan tashqari yuridik shaxs boshqaruv organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilish to`g`risidagi ishlar iqtisodiy sudlarning ish yurituviga taalluqli hisoblanadi. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, korporatsiyaga tegishli bo`lgan aksiyalar, ulushlar yoki a'zolik paylariga oid er-xotin o'rtasidagi umumiylig`ilishini chaqirish to`g`risidagi nizolar, bundan tashqari korporativ tuzilma doirasida vujudga keladigan mehnat munosabatlariga oid tortishuvlar iqtisodiy sudlarning yurisdiktsiyasiga kirmaydi. Bunday turdagи masalalar odatda fuqarolik ishlari bo`yicha sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi va ular iqtisodiy sudlar ko'rib chiqadigan korporativ nizolar doirasiga tegishli hisoblanmaydi.<sup>1</sup>

Muayyan ishni aniq hal qilish bo`yicha aniq iqtisodiy sudning vakolatini belgilash ishlarni ushbu sudga tegishliligini belgilash orqali amalga oshiriladi<sup>2</sup>. “Tegishlilik” tushunchasi ostida, ma'lum bir iqtisodiy sudning aniq toifadagi ishlarni ko'rib chiqish huquqiga egaligi nazarda tutiladi. Bu atama, sud ishlarini ko'rib

<sup>1</sup>Ibratova Feruza. Iqtisodiy va korporativ nizolarni hal etish, darslik, Toshkent -2022, 38-bet

<sup>2</sup> Ibratova Feruza. Iqtisodiy va korporativ nizolarni hal etish, darslik, Toshkent -2022, 38-bet

chiqishda, aynan qaysi iqtisodiy sud vakolatli ekanligini belgilab beradi. “Taalluqlilik” tushunchasidan farqli o’laroq, “tegishlilik” iqtisodiy sudlar tizimi doirasida ishlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha vakolatlarni turli iqtisodiy sudlar o‘rtasida taqsimlashni anglatadi. Ya’ni, bu – O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy sudlar tizimi ichida vakolatlar qanday bo‘linishini ifodalaydi. Shunday qilib, taalluqlilik umumiy yurisdiktsiyaga oid bo‘lsa, tegishlilik aniq bir sudning muayyan ish bo‘yicha vakolatini belgilash vositasidir.

Iqtisodiy protsessual huquq doirasida “tegishlilik” tushunchasi muhim protsessual tamoyillardan biri sifatida e’tirof etiladi. U sudlarning o‘zaro vakolat doiralarini aniqlashda xizmat qiladi va odatda ikki asosiy shaklda namoyon bo‘ladi. Turdosh (predmet) tegishlilik – bu turdagи tegishlilik sud ishining mazmuni yoki mohiyatiga ko‘ra aniqlanadi. Ya’ni, ishning predmeti qanday huquqiy munosabatlarga taalluqli bo‘lsa, shu asosda qaysi darajadagi yoki ixtisoslashgan iqtisodiy sud ushbu ishni ko‘rib chiqishi aniqlanadi. Masalan, agar ish yuridik shaxslar o‘rtasidagi shartnoma nizosi haqida bo‘lsa, uni birinchi instansiya iqtisodiy sudi ko‘rib chiqadi. Bu holatda turdosh tegishlilik sud ishining toifasiga qarab sudlar o‘rtasida vakolat taqsimotini belgilaydi.

Turdosh tegishlilik – bu sud yurisdiktsiyasining bir turi bo‘lib, u nizo qanday iqtisodiy sud bo‘g‘inida ko‘rib chiqilishi kerakligini belgilaydi. Boshqacha aytganda, bu turdagи tegishlilik sud tizimi ichidagi turli darajadagi iqtisodiy sudlar o‘rtasida ishni ko‘rib chiqish bo‘yicha vakolat taqsimotini ifodalaydi. Turdosh tegishlilikning asosiy mezoni bu – nizoning predmeti, ya’ni qanday huquqiy munosabatlar bo‘yicha nizo yuzaga kelganidir. Masalan, mulkiy talablarga asoslangan shartnoma nizolari, tadbirdorlik subyektlari o‘rtasidagi da’volar yoki yuridik shaxslar faoliyati bilan bog‘liq boshqa nizolar aynan shu mezon asosida turli instansiyalardagi iqtisodiy sudlarga taalluqli deb topiladi. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, sudlarga tegishli ishlarning asosiy qismini tumanlararo, tuman yoki shahar iqtisodiy sudlari ko‘rib chiqadi. Biroq ayrim holatlarda, masalan, yirik nizolar, alohida ahamiyatga ega ishlar yoki protsessual tartibda belgilangan istisnolar mavjud bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari vakolatiga kiradi.

Bu holatlar sud vakolatlarining aniq chegaralanishini talab qiladi va sud yurisdiktsiyasining izchilligi ta’minlanadi. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari:

- 1) taraflardan biri O‘zbekiston Respublikasi norezidenti — chet el shaxsi bo‘lgan ishlarni;
- 2) arbitraj muhokamasi bilan bog‘liq ishlarni;

3) chet davlat sndlari va arbitrajlarining qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radi<sup>3</sup>.

Iqtsodiy protsessual kodeksida belgilangan normalarda esa davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari o‘rtasidagi iqtisodiy bitimlardan kelib chiqadigan nizolar O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan ko‘riladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi alohida holatlarni e’tiborga olgan holda har qanday ishni istalgan suddan olib qo‘yish va uni birinchi instansiya bo‘yicha o‘z ish yurituviga qabul qilishga, ishni bir suddan boshqasiga o‘tkazishga haqli. Investitsiyaviy nizolar bo‘yicha yirik investorning, raqobatga oid ishlar bo‘yicha taraflarning xohishiga ko‘ra, ushbu toifadagi ishlar bevosita O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, qolgan investitsiyaviy nizolar investorning xohishiga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sndlari tomonidan birinchi instansiya sudi sifatida ko‘riladi.

Turdosh tegishlilik iqtisodiy nizolarning birinchi instansiyada O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sndlari va tuman sndlari tomonidan ko‘riladigan nizozlarning tegishliligini o‘rnatishga imkon beradi. Bundan tashqari, iqtisodiy sndlар tizimining teng bo‘lgan bo‘g’inga kiruvchi sndlarning qaysi birida iqtisodiy nizo ko‘rib chiqilishi mumkinligini aniqlash lozim. Bu masalani hal qilish ishning hududiy tegishliligini aniqlash demakdir. Amaldagi Iqtisodiy protsessual kodeksining 33-moddasida hududiy tegishliligiga oid qoidalar keltirilgan.

Hududiy (territorial) tegishlilik – bu esa sudning hududiy yurisdiktsiyasini belgilashga xizmat qiladi. Bunda ishni ko‘rib chiqish huquqiga ega sud, odatda nizoning ishtirokchilaridan birining (yoki nizoning o‘zi yuzaga kelgan) geografik joylashuvi asosida aniqlanadi. Masalan, agar javobgar Toshkent shahrida joylashgan bo‘lsa, da’vo arizasi Toshkent shahar iqtisodiy sudiga taqdim etiladi. Shuningdek, ayrim holatlarda qonunchilik tomonidan hududiy tegishlilikning alternativ yoki shartnomaviy shakllari ham belgilanishi mumkin. Shu tariqa, tegishlilikning bu ikki shakli sud ishlariniadolatli, tezkor va samarali tarzda ko‘rib chiqilishi uchun muhim protsessual asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hududiy tegishlilik- tegishli bo‘g’indagi teng bo‘lgan tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sndlarning qaysi biri iqtisodiy nizolarni ko‘rib hal qilishi lozimligi tushuniladi.

Huquqiy adabiyotlarda hududiy tegishlilik — bu da’vo arizasi yoki nizoli masala qaysi geografik hududdagi iqtisodiy sud tomonidan ko‘rib chiqilishi kerakligini aniqlovchi protsessual tamoyildir. Mazkur institut sud yurisdiktsiyasini aniqlashda

<sup>3</sup> Ibratova Feruza. Iqtisodiy va korporativ nizolarni hal etish, darslik, Toshkent -2022, 39-bet

adolat, qulaylik va protsessual aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Qonunchilik va huquqiy adabiyotlarda hududiy tegishlilikning quyidagi shakllari e'tirof etilgan<sup>4</sup>:

1. Umumiy hududiy tegishlilik – sudga da'vo arizasi, odatda, javobgarning doimiy ro'yxatda turgan joyi yoki yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan joyidagi iqtisodiy sudga taqdim etilishi lozim. Bu holat fuqarolik va xo'jalik yurisdiktsiyasidagi eng ko'p qo'llaniladigan tamoyildir. Bu qoida nizoning javobgar uchun eng qulay vaadolatli tarzda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi.

2. Da'vogarning tanlashi bo'yicha tegishlilik – ayrim hollarda qonun da'vogarga sudga murojaat qilish joyini tanlash huquqini beradi. Masalan, agar javobgar bir necha joyda faoliyat yuritsa yoki da'vo bir necha joyda yuzaga kelgan bo'lsa, da'vogar ushbu joylardan istalgan biriga murojaat qilishi mumkin<sup>2</sup>. Bu imkoniyat, asosan, da'vogarning huquqlarini himoya qilish va protsessual qulaylikni oshirishga xizmat qiladi.

3. Maxsus hududiy tegishlilik – qonunchilikda ayrim toifadagi ishlar bo'yicha aniq belgilangan sudlar mavjud. Masalan, korporativ nizolar, bankrotlik, monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzish holatlari bo'yicha ishlar faqat tegishli ixtisoslashgan sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin<sup>3</sup>. Bunday vakolatlar, odatda, murakkablik darajasi yuqori bo'lgan ishlar uchun belgilanadi.

4. Mustasno hududiy tegishlilik – bu holda qonunchilik belgilab bergenidek, ayrim ishlar faqat bitta aniq sud yurisdiktsiyasiga kiradi. Boshqa hech qanday sud ushbu ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli emas. Bunga misol tariqasida, davlat manfaatlariga taalluqli yoki davlat sirlarini o'z ichiga olgan ishlarni keltirish mumkin.

5. Kelishilgan hududiy tegishlilik (shartnomaviy) – tomonlar o'zaro tuzgan bitim asosida, keljakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni ko'rib chiqish bo'yicha sudning hududiy joylashuvini oldindan kelishib olishlari mumkin. Bunday kelishuvlar, odatda, shartnomalarda yozma tarzda belgilanadi. Biroq, bu tartib faqat umumiyl va da'vogarning tanlovi asosidagi tegishlilik hollari uchun amal qiladi<sup>5</sup>.

Iqtisodiy protsessual normalar asosida belgilanganidek, sud yurisdiksiyasi doirasida hududiy tegishlilik institutining amaliy qo'llanilishi, ayniqsa, xo'jalik subyektlari — yuridik va jismoniy shaxslar ishtirokidagi nizolarniadolatli va qulay tarzda hal etishda muhim rol o'ynaydi. Amaldagi qonun hujjatlarida ushbu institutning aniq mexanizmlari nazarda tutilgan bo'lib, ular turli holatlarda sudga murojaat qilish tartibini oydinlashtiradi. Avvalo, yuridik shaxslar ishtirokidagi da'volar, odatda, ularning rasmiy ro'yxatdan o'tgan yuridik manzili joylashgan hududdagi iqtisodiy sudga yuboriladi. Bu tartib protsessual barqarorlikni ta'minlashga, javobgar shaxsning manfaatlarini hisobga olishga va ish yurituvining maqbulligiga xizmat qiladi.

<sup>4</sup> Karimov A. "Iqtisodiy protsessual huquq asoslari", Toshkent, 2021-yil

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 354-modda

Shuningdek, agar yuridik shaxsning tarkibida alohida tarkibiy bo‘linma faoliyatidan nizo kelib chiqsa, ushbu bo‘linma ro‘yxatdan o‘tgan hududdagi iqtisodiy sud mazkur ishni ko‘rib chiqish vakolatiga ega hisoblanadi. Masalan, bankning viloyatdagi filialidan kelib chiqqan da’vo aynan o‘sha viloyatdagi iqtisodiy sudda hal etiladi. Agar da’vo bir vaqtning o‘zida bir nechta javobgarga nisbatan qo‘zg‘atilayotgan bo‘lsa va ular turli hududlarda ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, da’vogar ushbu javobgarlardan istalgan birining ro‘yxatdan o‘tgan joyidagi sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘ladi. Bu esa da’vogar tanlov erkinligini ta’minlaydi va protsessual tenglik prinsipiiga mos keladi. Javobgarning rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan manzili noma’lum bo‘lsa, da’vo arizasi uning mol-mulki joylashgan yoki so‘nggi ma’lum yashash yoki faoliyat yuritgan hududdagi sudga taqdim etilishi mumkin. Bu qoida huquqiy aniqlikni ta’minalash va da’vogar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Agar O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lishiga qaramasdan, javobgar boshqa davlat hududida doimiy yashasa, da’vo da’vogarning yashash joyida yoki javobgarning O‘zbekiston hududidagi mulki mavjud bo‘lgan hududdagi sudga taqdim etilishi mumkin. Bu holatda da’vogar uchun maqbulroq protsessual sharoit yaratiladi. Shartnomalar asosida yuzaga kelgan majburiyatlardan kelib chiqadigan da’volar — masalan, mahsulot yetkazib berish, xizmat ko‘rsatish, pul mablag‘larini qaytarish kabi majburiyatlar bo‘yicha nizolar — shartnomada ko‘rsatilgan majburiyat bajarilishi lozim bo‘lgan hududdagi sudga yuboriladi. Investitsion nizolar bo‘yicha ham huquqiy mexanizmlar belgilangan. Agar da’vo yirik investor bo‘lmagan investor tomonidan bildirilgan bo‘lsa, u holda da’vo javobgar ro‘yxatdan o‘tgan joyidagi tumanlararo, tuman yoki shahar iqtisodiy sudlariga taqdim etiladi. Ammo, agar nizo yirik investor bilan bog‘liq bo‘lsa, u holda ushbu ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi vakolatiga ham taalluqli bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, iqtisodiy protsessual qonunchilikda maxsus hududiy tegishlilik normativlari mavjud. Bunga, masalan, yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash va bankrotlik to‘g‘risidagi ishlar kiradi. Birinchi holatda, ariza beruvchi ro‘yxatdan o‘tgan joyidagi sud ushbu ishni ko‘radi. Agar nizo ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquq bilan bog‘liq bo‘lsa, u holda sud ko‘chmas mulk joylashgan hududda bo‘lishi lozim. Ko‘chmas mulk, masalan, yer uchastkasi, bino, ishlab chiqarish inshooti bo‘lishi mumkin. Bankrotlik ishlari esa qarzdor yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro‘yxatidan o‘tgan manzili, yoki yashash joyidagi sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Bu holatda, iqtisodiy muomalada ishtirok etuvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi, kreditorlar huquqlarini himoya qilish va umumiyligi iqtisodiy tartibotning ta’milanishi ko‘zda tutiladi.

IPKnинг 37-moddasida alohida ya’ni mustasno sudlovga tegishlilik mustahkamlangan:

-Ko‘chmas mulkka bo‘lgan mulk huquqini tan olish to‘g‘risidagi da’volar, ko‘chmas mulk haqidagi nizolar, shu jumladan ko‘chmas mulkni boshqa shaxsning

g‘ayriqonuniy egaligidan talab qilib olish to‘g‘risidagi yoxud mulkdorning yoki mol-mulkning boshqa qonuniy egasining huquqlari egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda buzilishini bartaraf etish haqidagi va ko‘chmas multka bo‘lgan huquqlar to‘g‘risidagi boshqa da‘volar ko‘chmas multk joylashgan yerdagi sudga taqdim etiladi.

-Tashuvchiga nisbatan yo‘lovchilar, bagaj va yuklarni tashish shartnomalaridan kelib chiqadigan da‘volar, shu jumladan, agar javobgarlardan biri tashuvchi bo‘lsa, transport tashkilotining organi joylashgan yerdagi sudga taqdim etiladi.

-Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza hakamlik sudi joylashgan yerdagi iqtisodiy sudga beriladi.

Milliy huquqiy amaliyotda xalqaro va mahalliy arbitraj (hakamlik) sudlarining faoliyati tobora kengayib borayotgani bois, ularning qarorlarini tan olish va ijro etish masalasi iqtisodiy protsessual qonunchilikda alohida tartibda nazarda tutilgan. Xususan, arbitraj tartibida ko‘rilayotgan nizolarda ishtirok etuvchi tomonlar o‘rtasida vujudga kelgan da‘voni ta‘minlash choralarini ko‘rish, arbitraj qarorini ijroga qaratish, arbitraj jarayonini nazorat qilish bo‘yicha arizalar hududiy tegishlilik prinsipi asosida ko‘rib chiqiladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, hakamlik sudida ko‘rilayotgan da‘voni ta‘minlash choralarini ko‘rish haqida ariza uchta manzilga taalluqli bo‘lishi mumkin:

1. arbitraj (hakamlik) sudi joylashgan yer bo‘yicha,
2. javobgar (qarzdor) sifatida qatnashayotgan shaxsning davlat ro‘yxatidan o‘tgan joyi bo‘yicha,
3. agar qarzdor yuridik shaxsning ro‘yxatga olingan manzili noma’lum bo‘lsa, u holda uning mol-mulki joylashgan hududdagi iqtisodiy sudga murojaat qilinadi. Misol uchun, Toshkentda joylashgan arbitraj sudi tomonidan ko‘rilayotgan da‘voda qarzdorning yuridik manzili Samarqandda ro‘yxatga olingan bo‘lsa, da‘vogar ushbu ikki manzildan birini tanlash huquqiga ega. Agar javobgar manzili umuman aniqlanmagan bo‘lsa, u holda da‘vogar ushbu shaxsning Toshkentdagি mol-mulki turgan iqtisodiy sudga murojaat qilishi mumkin.

Shuningdek, iqtisodiy sudlar vakolatiga quyidagi masalalarni hal qilish kiradi:

- arbitr (hakam) shaxsini tayinlash,
- arbitrni rad etish haqidagi murojaatni ko‘rib chiqish,
- arbitr vakolatlarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish,
- hakamlik sudining yurisdiksiyasi bo‘yicha kelib chiqqan nizolarni hal etish,
- dalillarni to‘plashda yordam ko‘rsatish,
- shuningdek arbitraj sudining hal qiluv qarorini bekor qilish bo‘yicha arizalarni ko‘rib chiqish. Mazkur protsessual harakatlar arbitraj sudi joylashgan hududdagi iqtisodiy sud tomonidan amalga oshiriladi. Bu holat arbitraj institutining

mustaqilligini saqlagan holda, davlat sud tizimining arbitraj jarayonlarini protsessual jihatdan qo'llab-quvvatlash vazifasini bajarishiga asoslanadi.

Yuqoridagi kabi arbitraj sudlarida ko'rileyotgan da'volarni ta'minlash choralarini tan olish va ularni ijroga qaratish choralari, xuddi da'veoni ta'minlashdagi kabi, quyidagi uchta asosiy mezon bo'yicha belgilangan sudga taqdim etilishi mumkin:

- arbitraj sudi joylashgan yer bo'yicha;
- qarzdor davlat ro'yxatidan o'tgan joy bo'yicha;
- qarzdor manzili noma'lum bo'lgan taqdirda — mol-mulki turgan joy bo'yicha.

Mazkur normalar nafaqat arbitraj sudi qarorlarining adolatli ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi, balki ish yurituv jarayonida tomonlar uchun maqbul, shaffof va huquqiy kafolatlangan sharoitni yaratadi. Bu esa iqtisodiy muomalada ishonchlilik muhitini shakllantirishda, investorlar huquqlarini himoya qilishda va xalqaro huquqiy standartlarga yaqinlashishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Korporativ nizolar bo'yicha da'volar IPKning 30-moddasida ko'rsatilgan yuridik shaxs joylashgan yerdagi sudga taqdim etiladi. Qarshi da'volar dastlabki da'vo ko'rileyotgan joydagi sudga taqdim etiladi.

Kelishilgan hududiy tegishlilik deganda tomonlar nizoni ko'rib chiqish joyini belgilash huquqiga ega bo'lgan ishlarning tegishliligi hisoblanadi. Biroq, bunday tegishlilik faqat umumiylar hududiy tegishlilik va alternativ hududiy tegishlilikka nisbatab qo'llaniladi. Maxsus hududiy tegishlilik va mustasno hududiy tegishlilikka nisbatan qoidalar tomonlarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin emas .

Iqtisodiy sud ish yurituvda kelishilgan hududiy tegishlilik (yoki shartli tegishlilik) — bu tomonlarning o'zaro roziligi asosida sudlov yurisdiktsiyasini, ya'ni nizo ko'rib chiqiladigan sud joyini belgilash imkoniyatidir. Ushbu turdag'i tegishlilik huquqiy jihatdan umumiylar hududiy tegishlilik va alternativ hududiy tegishlilik doirasida amal qiladi. Bu shuni anglatadiki, faqat qonunda ruxsat etilgan hollarda taraflar o'zaro kelishuv asosida nizoni qaysi hududiy iqtisodiy sud ko'rib chiqishini oldindan aniqlash huquqiga egadirlar. Biroq, maxsus hududiy tegishlilik (masalan, bankrotlik ishlari, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash ishlari) va mustasno hududiy tegishlilik (masalan, ko'chmas mulk bilan bog'liq da'volar, davlat manfaatiga taalluqli ishlari) qonun hujjatlari bilan qat'iy tartibda belgilangan bo'lib, bu hollarda tomonlar o'zaro rozilik bildirish orqali ish yuritish yurisdiktsiyasini o'zgartirish huquqiga ega emas. Bu normalar sud yurisdiksiyasi barqarorligini va nizolarni adolatli, neytral hududda ko'rib chiqilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, amaldagi qonunchilikka ko'ra, agar iqtisodiy sud tomonidan tegishlilik qoidalariga riosa qilingan holda ish yurituvga qabul qilingan bo'lsa, keyinchalik ish boshqa sud yurisdiksiyasiga tegishli bo'lib qolgan taqdirda ham, bu holat sudning vakolatini yo'qqa chiqarmaydi. Ya'ni, bunday ish tegishli iqtisodiy sud tomonidan

mazmunan ko‘rib chiqilishi lozim. Bu prinsip protsessual barqarorlik va ortiqcha sud yurisdiksiyasi almashuvlarining oldini olishga qaratilgan. Biroq, ayrim istisno holatlar mavjud bo‘lib, sud ishni boshqa sud yurisdiksiyasiga o‘tkazishi mumkin. Jumladan: Agar ish sudlovga tegishlilik qoidalari buzilgan holda qabul qilinganligi ish ko‘rish vaqtida aniqlansa; Agar bir yoki bir nechta sudya rad etilganidan so‘ng ularning o‘rnini shu sudda almashtirish imkoni bo‘lmasa yoki ishni aynan shu sudda ko‘rib chiqish mumkin bo‘lmay qolsa (masalan, manfaatlar to‘qnashuvi sababli). Bunday hollarda sud ajrim chiqaradi va ish boshqa tegishli sudga yuboriladi. Mazkur ajrim asosida yuborilgan ish qabul qiluvchi sud tomonidan majburiy ravishda ko‘rib chiqilishi lozim. Bu holat sudlar o‘rtasida ishni yuborish va qabul qilish bo‘yicha bir maromda ishlaydigan mexanizm mavjudligini bildiradi. Ahamiyatli jihat shundaki, O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy sudlari o‘rtasida sudlovga tegishlilik yuzasidan bahslar (ya’ni yurisdiksiyalararo nizo) yuzaga kelishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu holat mamlakatda iqtisodiy sudlar tizimi yaxlit va barqaror ishlashini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy sudlar o‘rtasida sudlovga tegishlilik to‘g‘risida nizolarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Korporativ nizolarni sud tartibida ko‘rib chiqish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ushbu nizolar yuridik murakkablik, manfaatlar to‘qnashuvi va ko‘p hollarda tashkilotning ichki tuzilmasi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun bunday nizolarning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishliligini aniq belgilash, huquqni mustahkamlash va adolatli qarorlar qabul qilishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Sudga taalluqlilik nuqtai nazaridan, korporativ nizolarni boshqa iqtisodiy va fuqarolik nizolaridan ajratib turuvchi me’zonlarni yanada aniq belgilab beruvchi normalarni ishlab chiqish zarur. Amaldagi qonunchilikda korporativ nizo tushunchasi mavjud bo‘lsa-da, u ayrim holatlarda tor talqin qilinmoqda. Shu bois, nizolarning sud yurisdiksiyasiga tegishli yoki tegishli emasligini aniqlashda muayyan huquqiy noaniqliklar yuzaga kelmoqda. Bu esa sud amaliyotida turlicha yondashuvlarga olib kelmoqda.

**Xulosa qilib aytganda**, sudlovga tegishliliği masalasida esa nizoni ko‘rishda raqobatbardoshlik, qulaylik va adolat tamoyillariga rioya qilish alohida e’tiborga loyiqidir. Ayniqsa, korporativ nizolar bo‘yicha ishlarni qaysi hududiy sud ko‘rishi belgilashda taraflarning yashash joyi, yuridik manzili yoki faoliyat yuritayotgan hududi inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv nizolarni ko‘rib chiqishda aniqlikni oshiradi, ortiqcha sud xarajatlarini kamaytiradi va taraflar uchun haqiqiy adolatga erishish imkonini yaratadi. Shu asosda hududiy sudlar vakolatini optimallashtirish, ularni ixtisoslashtirish hamda yurisdiksiya chegaralarini aniq belgilash orqali korporativ nizolarni samarali ko‘rib chiqish tizimini shakllantirish mumkin. Hududiy sudlovga tegishliliği qoidalarni optimallashtirish orqali fuqarolar va yuridik shaxslar uchun qulay va tezkor sudga murojaat qilish imkoniyatini

kengaytirish lozim. Bunda korporativ nizolarni ko‘rib chiqishda taraflarning doimiy yashash joyi, yuridik manzili, xo‘jalik faoliyatini yuritish hududi va nizoning vujudga kelgan joyi kabi mezonlarni asosiy omillar sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv ortiqcha yurisdiksiya mojarolarini bartaraf etadi, sudga murojaat qilishdagi byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi hamda sud muhokamasining iqtisodiy va vaqt jihatidan samaradorligini oshiradi. Shuningdek, joylashuv omilini hisobga olgan holda taraflarga yaqin hududdagi sudni belgilash orqali ularning sud majlislarida to‘liq ishtirok etishiga sharoit yaratiladi. Natijada, korporativ nizolar yanada tezroq, aniqlik va adolat tamoyillari asosida ko‘rib chiqilishi ta’minlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;
3. O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi;
4. Ibratova Feruza. Iqtisodiy va korporativ nizolarni hal etish, darslik, Toshkent -2022, 38-bet;
5. Karimov A. “Iqtisodiy protsessual huquq asoslari”, Toshkent, 2021-yil.